



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2024-yil 6-avgust

VI-104-102-7-96-K/24

Kattaqo'rg'on tumani

Tuman mahalliy budget prognoz ko'rsatkichlari bajarilishini ta'minlash, hududning iqtisodiy o'sish nuqtalarini inobatga olgan holda qo'shimcha manbalarni aniqlash, soliq qarzlarini qisqartirish, ortiqcha to'lovlarga yo'l qo'ymaslik yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar haqida

Tumanda mahalliy budget prognoz ko'rsatkichlari bajarilishini ta'minlash, hududning iqtisodiy o'sish nuqtalarini inobatga olgan holda qo'shimcha manbalarni aniqlash, soliq qarzlarini qisqartirish, ortiqcha to'lovlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha amalga oshirilgan ishlar samaradorligini oshirish, tuman soliq inspeksiyasi boshlig'i N.Razzakovning hisobotini muhokama etib hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga asosan VI chaqiriq, xalq deputatlari tuman Kengashining 104- sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman soliq inspeksiyasi boshlig'i N.Razzakovning mahalliy budget prognoz ko'rsatkichlari bajarilishini ta'minlash, hududning iqtisodiy o'sish nuqtalarini inobatga olgan holda qo'shimcha manbalarni aniqlash, soliq qarzlarini qisqartirish, ortiqcha to'lovlarga yo'l qo'ymaslik yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimi birinchi o'rinosi (N.Jo'lmamatov), tuman Iqtisodiyot va Moliya bo'limi (M.Obbozov), tuman soliq inspeksiyasi (N.Razzakov)ga:

-soliq ma'muriyatichiligi vositalari hisob va tushumlarning to'liqligiga, shu jumladan, soliqlardan bo'yin tovlagan jismoniy va yuridik shaxslarni aniqlash;

-naqdsiz to'lovlarni kengaytirish choralarini ko'rish hamda yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishga keng jamoatchilikni, ommaviy axborot vositalarini jalb qilish;

- yashirin iqtisodiyotga murosasizlik hissini shakllantirish, legal biznes yuritishning nufuzini oshirish orqali mahalliy budget daromadlari bazasini kengaytirish hisobiga davlat budgeti daromadlari parametrlari so'zsiz bajarilishini ta'minlash kabi vazifalar yuklansin.

3. Tuman hokimi birinchi o'rinosi (N.Jo'lmamatov), tuman Iqtisodiyot va Moliya bo'limi (M.Obbozov), tuman soliq inspeksiyasi (N.Razzakov),

-tadbirkorlarga faoliyatini qonuniylashtirishda va zarur ruxsatnomalarni olishda o'rnatilgan tartibda amaliy yordam berish, shuningdek, ular bilan profilaktika ishlarini olib borish;

-yashirin iqtisodiyotning shakllanishiga olib keladigan sabablar va omillarni aniqlash, ularni bartaraf etish choralarini ko'rish;

-noqonuniy olib kirilgan yoki kontrafakt tovarlarni, shuningdek, yuk tashish hujjatlarisiz mamlakat ichida harakatlanayotgan tovarlarni sotishga qarshi murosasiz kurashish;

- sotish va saqlash holatlarini aniqlash orqali davlat ro‘yxatidan o‘tmasdan tadbirkorlik faoliyatini yuritish va daromadlarni yashirishning oldini olish;

-qurilish obyektlarida va xizmat ko‘rsatish sohasidagi norasmiy mehnat faoliyatini yuritish, shuningdek, ish haqini “konvert”da to‘lash holatlarini aniqlash va bartaraf etish; daromadlar bazasini kengaytirish va iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zaruriy choralarini ko‘rish;

-soliqlarning undiruvchanlik darajasini oshirish choralarini ko‘rish topshirilsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (X.Tillayev) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (N.Jo‘lmatov) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH